

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



**IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLIISH BO'YICHA
60410800 - MENEJMENT YO'NALISHIGA KIRISH SINOV LARI DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

Buxoro – 2025

Tuzuvchilar: J.R. Toxirov - BuxDU, Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d. (PhD), dotsent

N.M. Zayavitdinova - BuxDU, Marketing va menejment kafedrası dotsenti, i.f.n.

Z.T. Jurayeva - BuxDU, Marketing va menejment kafedrası dotsenti.

Taqrizchilar: N.S. Ibragimov - BuxDU, Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası mudiri, i.f.d., professor.

H.H. Ziyavitdinov - BuxDU, Marketing va menejment kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

KIRISH

Ma'lumki har qanday faoliyat tashkiloti menejment asosida quriladi, chunki shu faoliyatni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadga erishish, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, ijrosini nazorat qilish, shuningdek, samaradorlikka erishish uchun ushbu faoliyatda ishtirok etuvchilar manfaatlarini himoya qilish, rag'batlantirish chora-tadbirlari Menejment jarayonida tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi. Bunda boshqaruvga iqtisodiyotda mavjud tizim ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Zamonaviy menejment bozor iqtisodiyoti sharoitlarida faoliyat yurituvchi firmalar, korxonalar, tashkilotlarni boshqarishning vujudga kelgan tizimi sifatida ularning ishlab chiqarish — xo'jalik faoliyatining samarali rivojlanishi va faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratilishini ko'zda tutadi.

Bugungi zamonaviy muttaxassis kadr ham tadbirkor, ham tashkilotchi, shu bilan birga ayni paytda o'z huquqini biladigan va himoya qila oladigan kishi bo'lishi kerak. Zamon talablariga javob beradigan fidoiy, yangilikka intiluvchan, tashabbuskor, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, ularning zaxirasini shakllantirish va kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

ASOSIY QISM

Menejmentning rivojlanish tarixi ya zamonaviy holati

Menejmentning tarixiy shart-sharoitlari, boshqaruv fikrining evolyutsiyasi, olimlarni uning rivojlanishiga qo'shgan hissasi, mamlakatimiz boshqaruvi rivojlanishi tarixi, hozirgi zamon o'zbek menejmentining xususiyatlari.

Menejmentning nazariy asoslari

«Menejment» tushunchasi, uning boshqaruvdan farqi, menejment fani va amaliyotining maqsadlari, boshqaruvning mohiyati va uni amalga oshirish shartlari, boshqaruvning subyekti va obyekti, boshqaruv (menejment) tizimi va uning tuzilishi, boshqaruv usullari, menejmentning yondashuv va tamoyillari tizimi hamda ularning rivojlanishi.

Mehnatni boshqarish usullari

Mehnatni boshqarish xarakteri, mehnatni boshqarish turlari, F.Teylorning mehnatni boshqarish usullari, mehnatning hunarmandchilik, texnokratik va innovatsion boshqarish masalalari.

Menejment texnologiyasi

Boshqaruv jarayoni va umumiy vazifalari (rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, nazorat, muvofiqlashtirish), motivatsiyaning mazmun va jarayon nazariyalari, boshqaruvdagi axborotlar va kommunikatsiyalar, kommunikatsion

tarmoqlar, noverbal axborotlar, boshqaruv qarorlari: tushunchasi, qabul qilish bosqichlari va amalga oshirilishi.

Korxona (firma) xarajatlari va foydasi

Ishlab chiqarish xarajatlarini tadqiq etishdagi yondashuvlar. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari. Korxona ishlab chiqarish xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlarining mazmuni, tarkibi va turlari. Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlar. Me'yordagi foyda. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar. Doimiy, o'zgaruvchi va umumiy (yalpi) xarajatlarning grafikdagi tasviri. O'rtacha va umumiy xarajatlar. O'rtacha xarajatlarning egri chiziqlari. So'nggi qo'shilgan xarajatlar tushunchasi.

Korxona (firma) ning pul tushumlari va foydasi. Xarajatlar va daromadlar egri chizig'i. Zarar ko'rmaslik nuqtasi. Foydaning tarkib topish bosqichlari. Foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Mahsulot qiymati tarkibi. Yalpi foydaning taqsimlanishi. Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasining farqlanishi. Sof foyda. Foyda normasi va massasi hamda ularni hisoblash. Foyda normasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Ish haqi va mehnat munosabatlari

Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari. "Ishlab chiqarishning uch omili", qo'shilgan omil unumdorligi va boshqa nazariyalar. Mazkur nazariyalarning kamchiliklari. Yaratilgan mahsulotni taqsimlashning asosiy yo'nalishlari.

Ish haqi to'g'risida turlicha nazariyalar. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Nominal va real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Ish haqining tabaqalanishi. Ish haqini tashkil qilish shakllari va tizimlari. Tarif tizimi. Minimal ish haqi.

Mehnat munosabatlari. Mehnat shartnomalari. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro munosabatlari. Kasaba uyushmalarining ish haqi darajasini oshirish yo'llari. Ishchi kuchi talabi va taklifini o'zgartirish. Kasb bo'yicha malaka darajasini litsenziyalash. Jamoa shartnomalari va ijtimoiy sug'urta tizimi. Ochiq va yopiq turdagi kasaba uyushmalarining ish haqi darajasiga ta'siri. Mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlatning roli.

Tashkilotlar va ularni boshqarish

«Tashkilot» tushunchasi va uning alomatlari, inson va tashkilotning munosabatlari, tashkilot ichidagi jarayonlar; tashkilotning ichki va tashqi muhiti, mehnatning gorizontal va vertikal taqsimlanishi, boshqaruv darajalari, tashkilot faoliyatini turkumlashtirish, tashkilotni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi, tashkiliy tuzilmalarning turlari, tashkilotlarning rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalar, tashkilotlarning yangi turlari, tashkilotning strategik boshqaruvi va uning jarayonlari, boshqaruvning samaradorligi.

Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik

Yalpi ishchi kuchining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Ishchi kuchini takror hosil qilish. Yalpi ishchi kuchining miqdor va sifat jihatdan aniqlanishi. FTTni ishchi kuchining sifat jihatdan takomillashuviga ta'siri. Nufus qonuni. Aholining tabiiy o'sishi. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari.

Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va taklif hamda uni aniqlovchi omillar. Ishchi kuchining qiymati. Ishchi kuchi bozorining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Fillips egri chizig'i. Ishchi kuchining ayrim sohalardan bo'shashi va uni qayta taqsimlashning bozor mexanizmi.

Ishchi kuchi bandligi to'g'risida turli xil nazariyalar. Neoklassik, keynscha, monetaristik, institutsional-sotsiologik maktab kontseptsiyalari. SHartnomaga asoslangan bandlik nazariyasi. Bandlik modellari. Moslashuvchan ishchi kuchi bozori kontseptsiyasi.

Ishsizlik va uning turlari. Friksion, tarkibiy va tsiklik ishsizlik. Institutsional, texnologik, hududiy, yashirin, turg'un ishsizlik. Ishsizlikning tabiiy darajasi. Ishsizlik darajasi va uni aniqlash. Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. A.Ouken qonuni. Ishsizlik va inflyatsiyaning o'zaro bog'liqligi.

Moliya tizimi va moliyaviy siyosat

Moliyaning mazmuni va ahamiyati. Moliyaviy munosabatlarning ob'ektlari va sub'ektlari. Moliyaning vazifalari. Moliya tizimi va uning bo'g'inlari. Davlat byudjeti va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi.

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi hamda ularning egri chizig'i. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlar, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Davlat ichki qarzi. Davlat krediti. Davlat tashqi qarzi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari. Soliq solish tamoyillari. Soliq imtiyozlari. Soliqlarning turkumlanishi. Laffer egri chizig'i. Soliq yuki va uning darajasini aniqlash. Soliq yukining taqsimlanishi. Moliyaviy siyosat. Fiskal (soliq-byudjet) siyosat.

Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli

Pul muomalasi. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillar. Pul muomalasi qonunlari. Pulning aylanish tezligi. Pul miqdorini aniqlashga turlicha yondashuvlar. Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari. Inflyatsiya darajasi va sur'ati. Talab va taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiya turlari: o'rmalab boruvchi, jadal va giperinflyatsiya. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati.

Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari. Kredit munosabatlarining ob'ektlari va sub'ektlari. Kredit resurslarining manbalari. Kredit berish tamoyillari. Foiz stavkasi va uning darajasini aniqlovchi omillar. Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish.

O'zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash siyosatining amalga oshirilishi. So'mning xarid quvvatini oshirib borish va barqarorligini ta'minlash. Inflyatsiyaga

qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish. Pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borish. Milliy valyuta almashuv kursining barqarorligiga erishish.

Zamonaviy menejer

Menejer, menejerlarning darajalari, menejerlar tomonidan bajariladigan vazifalar, menejerning oldiga qo'yiladigan talablar, menejerning kasbiy mahorati va tashkilotchilik qobiliyati, yetakchiligi, menejerning uslubi va imidji, menejerning ishga doir etikasi va etiketi.

Boshqaruv mehnatini tashkil etish

Boshqaruv mehnati, uning mohiyati, xususiyatlari, turlari; boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil qilish, BMITQning yo'nalishlari, mehnatning mazmunini o'rganish usullari, rahbarhing o'ziini-o'zi boshqarishi, o'zini-o'zi boshqarishning vazifalari, menejer faoliyatini rejalashtirish va boshqarish qurollari.

Mehnat jamoalarida xodimlarni boshqarish

«Mehnat jamoasi» tushunchasi, uni shakllantirish bosqichlari, rasmiy va norasmiy jamoalar, menejerning ta'siri va hukmronligi, ularning shakllari, «nizo» tushunchasi, uning turlari, vujudga kelish sabablari va hal etish usullari.

Korxona qudratini boshqarish

Korxona qudratini boshqarish bosqichlari, korxona qudratidan foydalanish dinamikasi va samaradorligining tuzilishi, uning bozordagi ulushini baholash, korxona qudratini raqobatbardoshligini baholash, korxonaning iqtisodiy qudrati, korxona qudrati rezervlari va yo'qotishlari tahlil qilingan.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Yoidoshev, N.K., G.E. Zaxidov. Menejment. Darslik. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 392 b.
2. Nazarova F., Xodjayeva Sh. Malqaro menejment. Darslik. — Toshkent. "Iqtisod-Moliya", 2020. 412 b.
3. Xoliqulov A.N., Berdikulov V., Ibodov K.M. Taqqoslama menejment. O'quv qo'llanma. — Toshkent. "Iqtisod-Moliya", 2021. 164 b.
4. Maxkamova M.A., Nabiyeu D.X. Innovatsion menejment. Darslik. — Toshkent. "Donishmand ziyosi", 2022. 336 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт

стратегияси тўғрисида”ги №ПФ-60 сонли Фармони. // <https://lex.uz/ru/docs/5841063>

2. William M. Pride, O. C. Ferrell Foundations of marketing. Third Edition. Houghton Mifflin Company Boston New York. 2009.
3. John Sloman, Alison Wride. Economics. Seventh edition. 2009, England.
4. Abdurahmonov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish: Darslik. T.: O‘qituvchi //NMIU, 2008.
5. Abdurahmonov Q.H., Shoyusupova N.T. -Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy mehnat munosabatlari: Darslik. T.: TDIU, 2011.
6. Ziyavitdinova N.M., O‘rinov Y.M., Hayitov Sh.N. Menejment. O‘quv qo‘llanma. T.: 2012.

Internet saytlari

1. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
2. www.uza.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
3. www.ceep.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.

IKKINCHI VA UNDAAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLISH BO'YICHA KIRISH SINOV LARI BAHOLASH MEZONLARI

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kirish sinovlari suhbat shaklida o'tkaziladi va 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

Abituriyentning suhbatdagi javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash ballari
a) berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qaror qabul qilsa, o'z fikrini tg'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.	22-25
b) berilgan savolni yetarli darajada bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolning nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa.	19-21
d) berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa.	14-18
e) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmaslik.	0-13

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.